

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Toshkent Islom Universiteti

Fuqarolik huquqi fanidan

Referat

Mavzu: Da'vo muddati

**Bahardi islom huquqi
yonalishi 4 – kurs
talabasi
Avazov Kahramon**

Toshkent 2013

DA'VO MUDDATI

Reja:

- 1. Da'vo muddatlari**
- 2. Da'vo muddatining turlari**
- 3. Da'vo muddatining o'ta boshlashi**
- 4. Da'vo muddati o'tishining to'xtatilishi, uzilishi va da'vo muddatining tiklanishi**
- 5. Da'vo muddati o'tishining oqibatlari**
- 6. Da'vo muddati joriy qilinmaydigan talablar**

Da'vo muddatlari

Da'vo muddati deb shaxs o'zining buzilgan huquqini da'vo qo'z-g'atish yo'li bilan himoya qilishi mumkin bo'ladigan muddatga aytiladi.

SH.Shorahmetovning fikricha har qanday fuqarolik da'vosining ikki tomoni bor:

Birinchidan, moddiy-huquqiy tomoni – bunda, avvalo, da'vogarning javobgarga nisbatan muayyan nizoli moddiy-huquqiy talabi bo'lishi, masa-lan, biron-bir ashyoning topshirilishi, pul to'lanishi, xizmat ko'rsatilishi, zararining qoplanishi xususida talab qilinadi;

Ikkinchidan, protsessual huquqiy tomoni – bunda taraflar o'rtasida kelib chiqqan nizoning mazmunan hal qilinishi va buzilgan yoki nizoli huquqning qo'riqlanishi to'g'risida sudga iltimos bilan murojaat qilinadi.

FKning 10-moddasida ko'rsatilganidek, fuqarolik huquqlari protses-sual qonunlar va shartnomada belgilab qo'yilganidek, ishlar qaysi sudga taalluqli bo'lishiga qarab, sud, xo'jalik sudi yoki xolislar sudi tomonidan himoya qilinadi. Binobarin, huquqlari buzilgan shaxs (fuqaro yoki tashki-lot)lar yuqorida ko'rsatilgan sud, xo'jalik sudi yoki xolislar sudiga da'vo arizasi berib, buzilgan huquqlarini himoya qilinishi to'g'risida da'vo qo'zg'atishlari mumkin.

Da'vo muddati subyektiv huquq va majburiyatlarini himoya etishi uchun shaxsga beriladigan so'nggi imkoniyat. Bu vaqt oralig'ida shaxs o'z huquqlarining amalga oshirilishini talab qilmasa, ularni yo'qotadi.

Buzilgan huquqni himoya qilish talabi da'vo muddatining o'tganli-gidan qat'i nazar, sudda ko'rib chiqish uchun qabul qilinadi (FK, 153-modda).

Agar da'vo arizasi qonun bilan belgilangan muddat davomida beril-gan bo'lsa, sud, xo'jalik sudi yoki xolislar sudi tomoni da'vo ishini ko'rib, ishning mazmuni bo'yicha da'voni qondirish yoki qondirmaslik to'g'risida qaror chiqaradi. Agar da'vo arizasi qonun bilan belgilangan muddatni o'tkazib berilgan bo'lsa, sud, xo'jalik sudi, yoki xolislar sudi muddatning o'tkazilish sababini muhokama qiladi,

agar da'vo muddati uzrsiz sabablar bilan o'tkazilganligi aniqlansa, o'tkazilgan muddat tiklanishi va ishning mazmuni bo'yicha qaror chiqarilishi mumkin.

Mulkiy munosabatlarni tartibga solishda da'vo muddatlari qonun bilan belgilanishi muhim ahamiyatga ega. Da'vo muddatining belgilanishi fuqarolik huquqiy munosabatlarni mustahkamlashga, qarzning undirilishi, majburiyatning bajarilishi to'g'risidagi talablar o'z vaqtida bajarilishini ta'minlashga, tashkilotlar o'rtasidagi hisob-kitoblar qilinishini tezlatishga, shartnoma va moliya intizomiga rioya etilishini ta'minlashga, xo'jalik hisobini mustahkamlashga yordam beradi. Da'vo muddatlarining belgilanishi fuqarolar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni mustahkamlash uchun ham katta ahamiyatga ega.

Mu'lumki, da'voni belgilangan muddatda to'g'ri hal qilish uchun fuqarolik ishi yuzasidan dalillar to'plash va ularni chuqur tekshirish lozim. Ammo nizoli huquqiy munosabat vujudga kelgan paytdan boshlab uzoq muddat o'tgan bo'lsa, dalillarni to'plash ancha qiyinlashadi. Chunki ish-ning sudda ko'rilishi vaqtida ba'zi guvohlarning bo'lmasligi (ko'chib ket-gan, vafot etgan bo'lishi), ba'zilari esa bo'lgan voqealarni, faktlarni unut-gan bo'lishlari yoki bu faktlarni buzib tasvirlashlari, ish to'g'ri hal qilinishi uchun zarur harajatlar yo'qotilgan bo'lishi mumkin va hokazo. Agar da'vo muddati qonun bilan belgilanmagan bo'lsa, bitim tuzgan yoki birovning biron-bir huquqini buzgan shaxs doimo uzoq vaqt davomida, o'ziga nisbatan boshqa shaxs tomonidan da'vo qilinishi xavfi ostida bo'lar edi.

Xulosa qilib aytsak, da'vo muddatlarining belgilanishi tashkilot va fuqarolarning huquq va manfaatlarini qo'riqlashga, fuqarolik-huquqiy munosabatlarni mustahkamlashga katta yordam beradi.

Da'vo muddatining turlari

Huquqi buzilgan shaxslarning da'volari yuzasidan ularning huquqini himoya qilish qonun bilan belgilangan da'vo muddatlari huquqiy munosabatning ishtirokchilariga va mazmuniga qarab umumiy va maxsus (qisqartirilgan yoki uzaytirilgan) muddatlarga bo'linadi.

Umumiy da'vo muddati – huquqiy munosabatlarda qatnashuvchi shaxslarning barchasi uchun uch yil qilib belgilangan (FK,150-modda).

FKning 151-moddasiga asosan ayrim turdagi talablar uchun qonun-larda umumiy da'vo muddatiga qaraganda qisqartirilgan yoki uzaytirilgan maxsus da'vo muddatlari belgilanishi mumkin.

Maxsus da'vo muddatlari faqat qonunlarda to'g'ridan-to'g'ri ko'rsa-tilgan hollardagina qo'llaniladi, chunonchi, olti oy davom etadigan qisqartirilgan da'volar bo'lishi mumkin:

- 1) neustoyka (jarima, penya) undirish to'g'risidagi da'volar;
- 2) sotilgan ashyoning kamchiliklari to'g'risidagi da'volar;

3) sifati lozim darajada bo'lmagan mahsulotlarni yetkazishdan kelib chiqadigan da'volar.

Da'vo muddatlari imperativ, ya'ni qat'iy belgilanganligi sababli bu muddatlar va ularni hisoblash tartibi taraflarning kelishuvi bilan o'zgartirilishi mumkin emas (FK,152-modda).

Da'vo muddatining o'ta boshlashi

Da'vo muddatini to'g'ri hisoblash uchun uning qay vaqtda tugashini belgilash zarur. Da'vo muddatining tugashi da'vo qilish huquqi vujudga kelgan kundan boshlanadi (FK,154-modda). Bunday huquq, ya'ni da'vo muddati shaxs o'zining huquqi buzilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan o'ta boshlaydi.

Da'volarning turlariga qarab da'vo muddati o'tishining boshlanish payti bir xil bo'lmaydi, jumladan, bajarish muddati ko'rsatilgan majbu-riyatlar bo'yicha da'vo muddatining o'tishi uchun shu ko'rsatilgan bajarish muddatining oxirgi kunidan keyingi kundan boshlanadi. Masalan, fuqaro boshqa birovga 1995-yil 20-dekabrda to'lash sharti bilan qarz bergan bo'lsa, da'vo muddatining o'tishi shu yil 21-oktabr soat 00-u 01 daqiqadan boshlanadi.

Bajarish muddati ko'rsatilmagan majburiyatlar bo'yicha da'vo muddatining o'tishi majburiyatlarning vujudga kelgan paytidan boshlanadi. Birovga zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar bo'yicha da'vo muddatining o'tishi jabrlangan shaxsning o'ziga zarar yetkazilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan e'tiboran boshlanadi.

Ba'zi da'volar bo'yicha da'vo muddati o'tishining boshlanishi to'g'ri-sida maxsus qoidalar belgilangan. Chunonchi, yuk tashish shartnomasi yuzasidan yuk tashuvchiga nisbatan da'vo qilish uchun belgilangan ikki oylik muddatning o'tishi e'tiroz bildiruvchi tomonidan javob olingan yoki javob berish uchun belgilangan muddatning o'tgan kunidan boshlanadi; sifati lozim darajada bo'lmagan mahsulotlar yetkazib berishdan kelib chiqadigan da'volar uchun belgilangan da'vo muddatining o'tishi yetkazib berilgan mahsulotdagi kamchiliklar sotib oluvchi tomonidan tegishli tartibda belgilangan kundan boshlanadi.

Da'vo muddati o'tishining to'xtatilishi, uzilishi va da'vo muddatining tiklanishi

Da'vo muddati o'tishining to'xtatilishi. Qoida bo'yicha da'vo muddatining o'tishi uzluksiz davom etadi. Ammo ba'zi hollarda da'vo muddati davom etib turganda, da'vo qilish uchun obyektiv – halaqit beradigan bironta holat sodir

bo'lishi mumkin. Bunday da'vo muddatining o'tishini to'xtatadigan holatlar qonunda (FKning 156-moddasi) belgilangan bo'lib, quyidagilardan iborat:

1) da'vo qilish uchun muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan favqulodda hodisa (yengib bo'lmas kuch) to'sqinlik qilsa, masalan, toshqin, zilzila singari hodisalar yuz bersa;

2) majburiyatlarni bajarishni kechiktirish (moratoriy) to'g'risida hukumat qarori bo'lsa;

3) agar da'vogar yoki javobgar harbiy holatga o'tkazilgan Qurolli kuchlar, chegara qo'shinlari va ichki qo'shinlar tarkibida bo'lsa;

4) agar muomalaga layoqatsiz shaxsning qonuniy vakillari bo'lmasa;

5) tegishli munosabatlarni tartibga soluvchi qonun yoki boshqa huquqiy hujjatlarning amal qilishi to'xtatilgan bo'lsa.

Da'vo muddatining o'tishi yuqorida ko'rsatilgan holatlar da'vo muddatining oxirgi olti oyida, bu muddat olti oydan kam bo'lsa, da'vo muddatida vujudga kelgan yoki davom etib turgan bo'lsa, muddatning o'tishi to'xtatiladi.

Muddatning to'xtatib turilishiga asos bo'lgan holat barham topgan kundan boshlab da'vo muddatining o'tishi davom etadi, bunda muddatning qolgan qismi olti oygacha, da'vo muddati olti oydan kam bo'lsa, da'vo muddatiga qadar uzaytiriladi (FK, 156-modda).

Da'vo muddatining o'tishi yuqorida ko'rsatilgan umumiy asoslardan tashqari yana maxsus asoslar bo'lgan taqdirda ham to'xtatib turilishi mumkin. Bunday maxsus asoslar qonunlarda nazarda tutiladi.

Da'vo muddati o'tishining uzilishi. Da'vo muddati o'tishining uzilishi da'vo muddati o'tishining to'xtatilishidan farq qiladi. Agar da'vo muddatining o'tishi to'xtaganda muddat yangidan hisoblanmasa, da'vo muddatining o'tishi uzilgan holda, da'vo muddati uzilgunga qadar vaqt yangi muddatga qo'shilmaydi va da'vo muddatining o'tishi uzilganidan so'ng yangidan hisoblanadi.

Da'vo muddatining o'tishi ikki holda: birinchidan, belgilangan tartibda da'vo qo'zg'atilishi bilan, ikkinchidan, majbur shaxs qarzni tan olganligini ko'rsatuvchi harakatlarni qilishi bilan uziladi (FKning 157-moddasi).

Da'vo muddatining tiklanishi. Agar sud, xo'jalik sudi yoki xolislari sudi da'vo muddatining o'tkazib yuborilishi sababini uzrli deb topsa, buzilgan huquq himoya qilinishi lozim bo'ladi. Bu holda o'tkazilgan da'vo muddati tiklanadi va taraflar o'rtasidagi nizo mazmunan ko'rib hal qilinadi.

Da'vo muddatining o'tkazilishi sabablarini qanday hollarda uzrli deb topish to'g'risida qonun muayyan holatlarni ko'rsatmaydi, binobarin, da'vo muddatini o'tkazib yuborish sabablarini tekshirish va uzrli yoki uzrsiz deb topish huquqi sudga, xo'jalik sudi yoki xolislari sudiga beriladi. Sud, xo'jalik sudi yoki xolislari sudi har safar konkret ishning holatlarini e'tiborga olib, o'tkazilgan da'vo muddatini uzrli yoki uzrsiz deb topishi mumkin.

Ba'zi hollarda fuqarolar va tashkilotlar o'zlariga bog'liq bo'lmagan sabablar bilan qonunda belgilangan muddat davomida da'volarni qo'zg'ata olmasliklari mumkin. Masalan: fuqaro kasalligi, keksa yoxud voyaga yetmaganligi, uzoq muddat davomida xizmat safarida bo'lganligi sababli yoki javobgarining qayerda bo'lishi noma'lum bo'lgan va boshqa ba'zi hollarda o'tkazilgan da'vo muddatlari

sud tomonidan uzrli deb topilishi mumkin. Tashkilotlar tomonidan o'tkazilgan da'vo muddatlari ham ba'zi hollarda sud yoki xo'jalik sudi tomonidan uzrli deb topilishi mumkin. Chunonchi, tashkilotlar o'z mansabdor shaxslarining aybli harakatlari, nazorat organlarining noto'g'ri bergan buyruqlari, sud yoki xo'jalik sudining xato harakatlari tufayli da'vo muddati o'tkazib yuborilgan va boshqa ba'zi hollarda da'vo muddatining o'tkazilishi uzrli sabab deb topilishi va ish mazmunan hal qilinishi mumkin.

Da'vo muddatining to'xtatilishi, uzilishi va tiklanishi to'g'risidagi qoidalar, agar qonun bilan boshqacha hol belgilanmagan bo'lsa, maxsus da'vo muddatlariga ham joriy qilinadi (FK, 151-modda, 2-band).

Da'vo muddati o'tishining oqibatlari

Da'vo qo'zg'atilgunga qadar da'vo muddatining o'tishi da'voni rad qilish uchun asos bo'ladi. Binobarin, da'vogar (haqdor) o'z huquqini majburiy ravishda amalga oshirish imkoniyatini yo'qotadi.

Yuqorida ko'rsatilgan da'vo muddati o'tishining asosiy oqibatini belgilaydigan qoidadan tashqari qonunda shu yuridik fakt bilan bog'liq bo'lgan boshqa qoidalar ham belgilanadi. Jumladan, asosiy talab bo'yicha da'vo muddati o'tishi bilan qo'shimcha talablar, chunonchi: neustoyka, garov, kafolat va boshqalar bo'yicha da'vo muddati ham o'tgan hisoblanadi (FK, 162-modda).

Ba'zi hollarda qarzdor o'z majburiyati da'vo muddati o'tgandan so'ng ham bajarishi hollari yuz berishi mumkin. Bunday hollarda avval majbur shaxs o'z tomonidan bajarilganligi, to'langan summaning qaytarilishi to'g'risidagi talabni qo'ya olmaydi. FKda qarzdor da'vo muddati o'tganidan keyin majburiyatini bajargan holda, garchi ijro etish paytida da'vo muddatining o'tib ketganligi bilan yoki bilishi lozim bo'lganligidan qat'i nazar bajargan narsasini qaytarishni talab qilishga haqli emasdir, deb ko'rsatiladi (FK, 161-modda).

Da'vo muddati joriy qilinmaydigan talablar

Buzilgan fuqarolik huquqlarini himoya qilish uchun ko'pchilik hollarda da'vo muddati belgilansa, da'vo muddati quyidagilarga nisbatan tatbiq qilinmaydi:

shaxsiy nomulkiy huquqlarni va boshqa nomoddiy boyliklarni himoya qilish haqidagi talablarga, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

omonatchilarning o'z omonatlarini berish to'g'risida bankka qo'yadigan talablariga;

fuqaroning hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararni to'lash haqidagi talablariga. Da'vo muddati o'tganidan keyin qo'zg'atilgan talablar da'vo oldingi ko'pi bilan uch yil bo'yicha qondiriladi;

jinoyat tufayli yetkazilgan zararni to'lash haqidagi talablarga;

mulkdorning yoki boshqa egalik qiluvchining o'z huquqini har qanday buzilishlarni, shu jumladan, egalik qilishdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan buzishlarni bartaraf etish haqidagi talablarga;

mamlakat mustaqilligi e'lon qilinishidan oldin uning chegaralaridan tashqariga olib chiqib ketilgan tarixiy, madaniy va ilmiy-badiiy qiymatga ega bo'lgan mol-mulkni hamda qimmatbaho obyektlarni qaytarib berish haqidagi talablarga;

qonunda belgilangan hollarda boshqa talablarga (FK,163-modda).

Ba'zi mualliflar yuqoridagi holatlardan tashqari da'vo muddati joriy qilinmaydigan talablar qatoriga mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma'naviy zararni undirish haqidagi talablarni kiritishni taklif etadi.

Tabiiyki, bu talablar fuqaro va shaxslar, shuningdek davlatimizning real huquqlaridan kelib chiqadi. Bu normalarning kiritilishi fuqarolik huquqiy munosabatlar tengligi munosabatlari, normal munosabatlar ekan-ligining yana bir bor tasdig'idir. Ushbu talablar bilan bog'liq munosabatlar O'zbekiston Respublikasining joriy qonunlarida ham normalangan. Chu-nonchi, madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining qonunida tarixiy, madaniy va ilmiy-badiiy qimmatga ega bo'lgan mol-mulklarni mamlakatimizga qaytarish bilan bog'liq birmuncha normalar belgilangan.